



HISTORY OF ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL CHANGES IN THE QASHQADARYO DISTRICT (REGION)

Islom Karshiyev

Doctoral student (DSc)

Termez State University

e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kashkadarya Region, administrative-territorial changes, regionalization (rayonization), Kashkadarya District (Okrug), uyezd, volost, Chirakchi, Beshkent.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 03.12.25

Abstract: This scholarly article provides a comprehensive analysis of the history of administrative-territorial changes in the Kashkadarya District (Region), focusing specifically on the complex stages during the years of Soviet rule. The article outlines the chronology of changes, from the division into uyezds in 1925 to the introduction of the regionalization (rayonization) system in 1926, as well as the subsequent establishment, merger, and reorganization of various districts (rayons).

QASHQADARYO OKRUGI (VILOYATI) DA MA'MURIY-HUDUDIIY O'ZGARISHLAR TARIXI

Islom Qarshiyev

Termiz davlat universiteti doktoranti (DSc)

e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, ma'muriy-hududiy o'zgarishlar, rayonlashtirish, Qashqadaryo okrugi, uyezd, volost, Chiroqchi, Beshkent.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola Qashqadaryo okrugi (viloyati)ning ma'muriy-hududiy o'zgarishlar tarixini, xususan, sovet hokimiyati yillaridagi murakkab bosqichlarini atroflicha tahlil qiladi. Maqolada 1925-yildagi uyezdlarga bo'linishdan to 1926-yildagi rayonlashtirish tizimining joriy etilishini, shuningdek, keyinchalik turli tumanlarning tashkil etilishi, birlashtirilishi va qayta tuzilish xronologiyasi yoritilgan.

ИСТОРИЯ АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В КАШКАДАРЬИНСКОМ ОКРУГЕ (ОБЛАСТИ)

Ислам Каршиев

Докторант (DSc)

Термезского государственного университета

e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, административно-территориальные изменения, районирование, Кашкадарьинский округ, уезд, волость, Чиракчи, Бешкент.

Аннотация: В этой научной статье подробно анализируется история административно-территориальных изменений Кашкадарьинского округа (области), в частности, сложные этапы в годы советской власти. В статье освещена хронология изменений - от деления на уезды в 1925 году до введения системы районирования в 1926 году, а также последующие процессы организации, объединения и реорганизации различных районов.

Kirish. Markaziy Osiyo mintaqasi va xususan, O'zbekiston hududidagi ma'muriy-hududiy bo'linishlar tarixi har doim murakkab va o'zgaruvchan jarayonlarni o'z ichiga olgan. Bu o'zgarishlar, asosan, davlatning siyosiy maqsadlari, iqtisodiy ehtiyojlari va aholining demografik o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi hududidagi eng qadimiy va strategik ahamiyatga ega hududlardan biri bo'lib, uning ma'muriy taqdiri XX asr davomida keskin o'zgarishlarga duch kelgan. Viloyat (dastlabki nomi ostida) respublikada tuzilgan ilk ma'muriy birliklardan biri bo'lsa-da, sovet hokimiyati yillarida u bir necha bor tugatilish, qo'shilish va qayta tiklanish kabi murakkab voqealarni boshidan kechirdi va maqola ayni shu jarayonlarning ilmiy tahliliga qaratilgan

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Qashqadaryo viloyatining ma'muriy-hududiy o'zgarishlari tarixi bo'yicha olib borilgan ushbu tadqiqot, asosan, davrning birlamchi hujjatlari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlarga tayanadi.

Tadqiqotning asosiy manbalari O'zbekiston Markaziy arxivi fondlaridagi bevosita Qarorlar, ish hujjatlari va yig'ilish bayonnomalaridan iborat.

Bundan tashqari, O'zbekiston SSR Markaziy Statistika Boshqarmasi tomonidan nashr etilgan rasmiy statistika to'plamlari, jumladan, «Список населенных мест Узбекской ССР» va «Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года» kabi nashrlar 1925–1928-yillardagi Qashqadaryo oblasti/okrugining uyezdlari, volostlari, rayonlari va qishloq sovetlari tarkibi,

shuningdek, aholi va xo'jaliklar soni bo'yicha aniq empirik ma'lumotlarni taqdim etishga imkon bergan. 1926-yilgi rayonlashtirish jarayoni haqidagi ma'lumotlar «Правда Востока» gazetasidagi e'lonlar va «Собрание Узбекской и распоряжений рабочего и дехканского правительства Узбекской ССР» kabi rasmiy to'plamlar orqali tekshirilgan.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Qashqadaryo viloyatining umumiy va yirik o'zgarishlar xronologiyasi bo'yicha asosiy ma'lumotlarni bergan. Q. Rajabov, B. Qandov, S. Rajabova va R. Akbarov kabi olimlarning ishlari ma'muriy tarixning umumiy va mahalliy jihatlarini o'rganishda nazariy asos bo'lgan. D. V. Zayatsning ittifoqdosh respublikalardagi ma'muriy bo'linishlar o'zgarishi borasidagi ishi esa tadqiqotga kengroq kontekst bergan. Shuningdek, K. N. Polvonov va O. M. Normatovlarning ishlari tuman markazlariga shahar maqomi berilishi kabi keyingi bosqichlarni o'rganishda yordam bergan.

Muhokamalar. Qashqadaryo viloyati (1924 yil 1 noyabrda tashkil topgan) respublikada tuzilgan dastlabki viloyat bo'lib, sovet hokimiyati yillarida qo'shilish, tugatilish, qayta tiklanish kabi voqealarni boshdan o'tkazdi. Jumladan, u 1938-1943 yillarda Buxoro viloyati, 1960-1964 yillarda Surxondaryo viloyati tarkibida bo'ldi [1].

O'zbekiston SSR Markaziy Revkomi Prezidiumi 1925-yil 29-yanvarda butun O'zbekiston bo'yicha ma'muriy bo'linishning bir xil tizimini joriy qilinishiga asos solgan dastlabki qarorni qabul qildi. Ushbu qarorga ko'ra, Qashqadaryo oblasti tashkil etilgan va u uchta asosiy uyezddan iborat bo'lgan: Behbudiy uyezdi, Guzar uyezdi va Shahrisabz uyezdi. Oblastda jami 13 ta volost, ularda 53 ta kent, 874 aholi yashash punkti mavjud edi. Oblastda jami 36 066 ta xo'jalik va 35 910 nafar aholi qayd etilgan.

1. Behbudiy uyezdida mavjud 4 ta volost (Beshkent, Qamashi, Koson, Pulat) da 14 347 xo'jalik mavjud edi va ularda 14 280 aholi yashagan. Volostlarda 13 ta kent, 199 aholi yashash punkti mavjud edi.

2. G'uzor uyezdida mavjud 4 ta volost (Kirshak, Kichik-katta o'rin, Yangikent, Yortepin) da 5958 xo'jalik mavjud edi va ularda 5970 aholi yashagan. Volostlarda 7 ta kent, 121 aholi yashash punkti mavjud edi.

3. Shahrisabz uyezdida mavjud 5 ta volost (Jansidorin, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog') da 15 761 xo'jalik mavjud edi va ularda 15 660 aholi yashagan. Volostlarda 33 ta kent, 554 aholi yashash punkti mavjud edi[2].

O'zbekiston SSR Sovetlari MIK Prezidiumining 1926-yil 11-iyundagi qarori asosida O'zbekiston SSRni rayonlashtirish bo'yicha Markaziy, oblast, uyezd va rayon komissiyalari faoliyati to'g'risida Nizom qabul qilindi.

1926-yil 25–29 sentyabrda Samarqandda O‘zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining V sessiyasi bo‘lib, unda rayonlashtirish loyihasi ko‘rib chiqildi va tasdiqladi. Sessiyaning birinchi majlisida rayonlashtirish loyihasi ko‘rib chiqildi va qaror qabul qildi. Bu qaror 1926-yil 18-oktyabrda «Qizil O‘zbekiston» va «Pravda Vostoka» gazetalarida bosildi [3]. Bu qarorga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda ma‘muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirildi hamda viloyatlar, uyezdlar va volostlar tugatildi[4]. Ayni vaqtda Qashqadaryo okrugi – markazi Behbudiy [hozirgi – Qarshi] shahri; butun Qashqadaryo viloyati asosida; 8 ta rayondan iborat[5]. Okrug bo‘yicha rayonlar quyidagilar: Koson, Beshkent, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, G‘uzor, Tengixaram.

Koson tumanida 22 ta qishloq sovetlari joylashgan: Abron, Azizobod, Olato‘n, Olachabob, Bo‘lmas, Jeynov, Qalmen, Qarlui, Koson, Qatag‘on, Qoziqochg‘ar, Mayda yabusaroy, Maymanoq, Mudin, Mullali, Obdida, Parguza, Pulat, Sariq, Uzunquduq, Xo‘jaxayron, Chandir.

Beshkent tumanida 31 ta qishloq sovetlari joylashgan: Arabquchqoq, Beshkent, Dasht, Denov, Qozoqqishloq, Kasbi, Qoraqo‘ng‘irot, Qavchin, Qiyiqchi, Qojar, Koxlyak, Qiyot, Mirmiron, Mirishkor, Muglen, Mushqoqi, Novqat, Niyozmudin, Nuqrabot, Pandron, Patron, Sariq-batosh, Soxtaniyoz, Taliqo‘rg‘on, To‘raqul, Fazli, Fayzobod, Xojaki, Chilmang‘it, Chorvoq-baygund, Yortepa.

Chiroqchi tumanida 21 ta qishloq sovetlari joylashgan: Oqrabot, Omborjar, Aroband, G‘ulombek, Do‘stberdi, Tursun, Kalqama, Qoratepa Kichik jartepa, Ko‘ktosh, Langar, So‘fi, To‘qboy, Takajig‘ildi, Torjilg‘a, Uyshun, Xayitqul, Chiyal, Chiroqchi, Chim, Sho‘rquduq.

Kitob tumanida 21 ta qishloq sovetlari joylashgan: Avazmalik, Bo‘rimeton, Vargonze, Dinavbolo, Qayni, Qalashiq, Qatlos, Kitob, Qiyomsheyx, Kuyakbay, Qishliq, Makrid, Namaton, Ochamayli, Oshkon, Sariosiyo, Sivaz, Sinabog‘, So‘fi, O‘rusqishloq, Xojaimkon.

Shahrisabz tumanida 18 ta qishloq sovetlari joylashgan: Ammagon, G‘ilyon, Kattamo‘minobod, Katta Novqat, Kunchiqar, Qutchi, Qizilemchak, Miraki, To‘damaydon, To‘pchan, Xojamurodbosh, Xazora, Hisorak, Xitoy, Choriyor, Shakartepa, Shamaton, Sho‘rasan.

Yakkabog‘ tumanida 16 ta qishloq sovetlari joylashgan: Burna qapchig‘ay, Bari, Jarqishloq, Jiyda, Ishkent, Qorabog‘, Qayrag‘och, Qishliq, Samoq, Sandal, Tatar, Tuyuqli, Ugun, O‘rtaqishloq, Shaymanqirg‘iz, Yakkabog‘.

G‘uzor tumanida 15 ta qishloq sovetlari joylashgan: Afg‘onbog‘, Oqguzar, G‘uzor, Eskibog‘, Katta Arab, Qavchin, Kerayit, Qo‘shstepa, Langar, Pachkamar, To‘rt sari, Xonobod, Chugurtma, Yangikent, Yortepa.

Tengixaram tumanida 25 ta qishloq sovetlari joylashgan: Ayri devol, Oqdag‘ana, Oqmachit, Oqtosh, Audjin, Beliboyli, Beshqo‘ton, Bo‘zstepa, Gajak, Zirakchi, Irisu, Qoralochin,

Qoqbuloq, Qoqmiyar, Quduqsaydi, Qizilmozor, Qizilcha, Qizquduq, Laylagon, Tog‘aytemir, Torqopchig‘ay, Xojabuloq, Chachmayi Miron, Chilgaz, Sho‘rguzar [6].

1943-yil 20-yanvarda Buxoro viloyatining bir qismidan Qashqadaryo viloyati tuzildi[7]. 1947-yilning 1-yanvardagi ma‘lumotlarga ko‘ra Qashqadaryo viloyatining ma‘muriy-hududiy bo‘linishi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lgan: Beshkent, G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi, Qarshi, Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qarshi sh., Shahrisabz sh [8].

Beshkent tumani – 1926-yilda Qashqadaryo okrugi tarkibida tashkil etilgan. Markazi Beshkent qishlog‘i. 1930-yilda tuman tugatildi. 1935-yilda tuman O‘zbekiston SSR Qashqadaryo okrugi tarkibida qayta tiklangan bo‘lsa, dastlab Kasbi tumani, keyinchalik esa Oktyabr tumani deb nomlagan. 1938-yil 15-yanvarda tuman Buxoro viloyati tarkibiga, 1943-yil 20-yanvarda esa Qashqadaryo viloyati tarkibiga o‘tkaziladi. 1960-yil 25-yanvarda tuman Surxondaryo viloyati tarkibiga o‘tkazildi. 1962-yil 24-dekabrda Beshkent tumani tugatildi.

G‘uzor tumani – 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Shimoldan Qamashi, Chiroqchi, sharqdan Dehqonobod, g‘arbdan Qarshi va Nishon tumanlari, janubda 25 km masofada Turkmaniston bilan chegaradosh.

Dehqonobod tumani – 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda G‘uzor tumani bilan birlashtirilgan. 1971-yil 31-avgustda qayta tuzilgan). Dehqonobod tumani viloyatning janubi-sharqida joylashgan. Shimoli-g‘arbda G‘uzor tumani, shimoli-sharqda Qamashi tumani, janubi-sharqda Surxondaryo viloyatining Boysun va Sariosiyo tumanlari, g‘arbda Turkmanistonning Lebap viloyati bilan chegaradosh.

Qamashi tumani – 1937-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Qarshi tumaniga qo‘shilgan. 1964-yil 31-dekabrda yana qaytadan tashkil etilgan. Shimoldan Chiroqchi, Yakkabog‘, Shahrisabz tumanlari, g‘arbdan Koson tumani, janubdan G‘uzor, Dehqonobod tumanlari, sharqdan Surxondaryo viloyatining Boysun tumani bilan chegaradosh.

Qarshi tumani – 1931-yil 1-oktyabrda tashkil etilgan[9]. Shimoldan Koson, shimoli-sharqdan Chiroqchi, sharqdan Qamashi, G‘uzor, janubdan Nishon, g‘arbdan Kasbi tumanlari bilan chegaradosh.

Koson tumani – 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Samarqand viloyatining Nurobod tumani, Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala, Muborak, Qarshi, Kasbi tumanlari va Qarshi shahri bilan chegaradosh.

Kitob tumani – 1926-yil sentyabrda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Shahrisabz tumani bilan birlashtirilgan. 1968-yil 25-dekabrda qayta tuzildi. Viloyatning Chiroqchi, Shahrisabz tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston bilan chegaradosh.

Chiroqchi tumani – 1920-yilda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Shahrisabz viloyati tarkibiga kiritilgan. 1926-yilga qadar shu viloyat tarkibida bo'lgan. 1926-yil 29-sentyabrda Qashqadaryo viloyati tarkibiga kiritilgan. Qisqa muddat, 1962-yildan to 1964-yilgacha Yakkabog' tumani bilan birlashtiriladi. 1964-yilda esa yana alohida tuman sifatida tashkil etiladi. Shimolda Samarqand viloyatining Nurobod va Pastdarg'om tumanlari, g'arbda Koson tumani, sharqda Shahrisabz va Yakkabog' tumanlari, janubda esa Qamashi, G'uzor va Qarshi tumanlari bilan chegaradosh.

Shahrisabz tumani – 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Shimolidan Kitob tumani, sharqdan Tojikiston, Surxondaryo viloyati, janubidan Yakkabog', Qamashi, g'arbdan Chiroqchi tumanlari bilan chegaradosh.

Yakkabog' tumani – 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Shimoldan Chiroqchi, Shahrisabz, sharq, g'arb va janubdan Qamashi tumanlari bilan chegaradosh.

1972-yil 24-fevralda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining «O'zbekiston SSRning ma'muriy-territorial bo'linishi borasidagi ayrim masalalarni hal etishdagi qonun-qoidalarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi[10]. Qarorga ko'ra, aholi maskanlariga shahar maqomini berish uchun zarur bo'lgan demografik me'yor o'zgartirilib, 10 mingdan 7 ming kishiga tushirildi. Bu holat ham shaharlarning tashkil topishida asosiy tadbirlardan biri bo'ldi. Bu esa Qashqadaryo viloyatidagi yirik aholi maskanlariga, tuman markazi hisoblangan qishloqlarga shahar maqomini berishga olib keldi [11]. Shunday qilib, 1972-yil 12-yanvarda Koson [13], 1974-yil 23-iyulda Muborak[14], 1975-yil 26-martda Talimarjon [15], 1976 yil 18-oktyabrda Kitob [16], 1977-yil 10-oktyabrda G'uzor[17], 1977-yil 27 dekabrda Beshkent[18], 1978 yil Qamashi[19], 1978 yil 20 martda Yakkabog'[20], 1980-yil 17-iyunda Chiroqchi [21] va 1982-yil 2-dekabrda Yangi Nishon[22] ga shahar maqomi berildi.

Xulosa. XX asrning birinchi yarmi Qashqadaryo hududi uchun tub ma'muriy-hududiy o'zgarishlar davri bo'lib, ushbu jarayonlar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va etnodemografik rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Rayonlashtirish siyosatining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, tumanlar chegarasining aniqlanishi, yangi ma'muriy markazlarning tashkil etilishi va ayrim hududlarning qayta tasnif qilinishi, bir tomondan, davlat boshqaruvini markazlashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy aholi turmush tarzining, xo'jalik yuritish shakllarining va hududiy identifikatsiyaning o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. –Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б. 697.

2. Список населенных мест Узбекской ССР. Выпуск V. Кашка-дарьинская область. Самарканд: Издание Ц. С. У. Уз. ССР., 1926.
3. О районирование // «Правда Востока», 18 октября 1926 г.
4. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. – С. 168.
5. «Правда Востока» 18 октября 1925 г.; Собрание Узбекской и распоряжений рабочего и дехканского правительства Узбекской ССР. – Самарканд – Ташкент, 1926. №35–36. – С. 150; Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. 6-нашри. – Б. 191–195.
6. Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года. Часть X. Округ Кашка-Дарья. Самарканд: Издание ЦСУ УзССР, 1929.
7. Заяц Д. В. Изменение административно-территориального деления союзных республик: газета. — 2001. — № 28.
8. СССР. Административно-территориальное деление союзных республик на 1 января 1947 года, 75 000 экз, "Известия Советов депутатов трудящихся СССР", 1947.
9. Акбаров Р. Қарши туман тарихи. –Тошкент: Тошкент ислом университети, 2016. –Б. 16.
10. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1991. –Б. 30.
11. Polvonov K. N. Qashqadaryo viloyatida shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishi tarixi (1970-2016 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Termiz: 2021. – B. 16.
12. Normatov O.M. O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish siyosatining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri. (Monografiya). Toshkent: "TURON-IQBOL", 2022. 136-b.
13. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 2212-ish, 24-varaq.
14. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 2626-ish, 61-varaq.
15. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 2828-ish, 135-varaq
16. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 3109-ish, 95-varaq.
17. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 3271-ish, 187-varaq.
18. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 3474-ish, 115-varaq.
19. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 3477-ish, 187-varaq
20. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 3496-ish, 2-varaq
21. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 4094-ish, 120-varaq.
22. O'z MA, R-2454-jamg'arma, 6-ro'yxat, 4808-ish, 34-varaq.